

**TA'LIMIIY PLATFORMALARNING TA'LIM TIZIMI RIVOJIGA
QO'SHAYOTGAN HISSASI VA ROLI (KREATIV FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRUVCHI VA INNOVATSION TA'LIM PLATFORMALARI
MISOLIDA)**

Rustamova Parizoda Suhrob qizi,

Baxtiyorov Muhammadqodir Berdali o'g'li

(Farg'ona davlat texnika universiteti talabasi)

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion ta'limiy platformalarning hozirgi ta'lim tizimidagi ahamiyati, ularning kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni, zamonaviy ta'lim muhitiga qo'shayotgan hissassi va raqamli texnologiyalarning ushbu platformalar bilan integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. Shuningdek, platformalarning o'quv jarayoniga ta'siri, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli amaliy misollar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: ta'limiy platforma, kreativ fikrlash, raqamli ta'lim, innovatsion texnologiya, interaktiv metod, mustaqil o'rganish, elektron resurslar, ta'lim tizimi.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimi bugun yangi texnologik yondashuvlarga muhtoj. Endilikda oddiy, an'anaviy o'qitish metodlari bilan bilim berish yetarli emas. O'quvchida mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, muammoni tahlil qilish, zamonaviy axborotdan samarali foydalanish ko'nikmalari bo'lishi zarur. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimini innovatsion texnologiyalar yordamida modernizatsiya qilmoqda. Shu jarayonda raqamli platformalarning ahamiyati ortib bormoqda. Bularning barchasini shakllantirishda ta'limiy platformalarning o'rni beqiyosdir.

Raqamli texnologiyalarning ta'limga kirib kelishi bilan ta'lim platformalari yangi bosqichga ko'tarildi. Dastlab masofaviy darslar uchun yaratilgan oddiy tizimlar bugun mukammal interaktiv, multimedia asosidagi o'quv muhitlariga aylandi. Bu platformalar orqali o'quvchi istalgan joydan, istalgan vaqtda, o'z tezligida bilim olishi mumkin. Bunda nafaqat bilim olish, balki o'z fikrini erkin bildirish, savollar berish, javoblar izlash, hatto jamoaviy loyihalarda ishtirok etish imkoniyati mavjud.

Tehnik vositalar bilan jihozlangan mahsus o'quv xonalari avtomatlash- tirilgan auditoriyalar, zallar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Har bir mavzu materiali bo'yicha texnik vositalardan foydalanish metodikasi aniq va puxta ishlab chiqilgan va amalda sinalgan bo'lishi lozim, ularga xos maxsus didaktik materiallar esa uzluksiz ravishda takomillashtirilib borilishi zarur. Inson faoliyatida texnikaning qo'llanilishi, ayniqsa uning o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish maqsadida ishlatilishi o'ziga xos omillarga egadir. Bu omillar birinchidan, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining keskin o'zgarishiga, ikkinchidan, o'quvchiga yetkazilishi kerak bo'lgan voqea va hodisalarning chuqurroq o'rganilishi va o'zlashtirilishiga zamin tayyorlashdan iboratdir.

Masalan, "Google Classroom", "Zoom", "Khan Academy", "Coursera", "Edmodo", "Padlet", "Mentimeter" kabi xalqaro platformalar o'z foydalanuvchilari uchun turli mavzularda interaktiv kontentlar, testlar, videodarslar, topshiriqlar, baholash tizimlarini taklif etadi. Bu esa o'quvchining faolligini oshiradi, uni bilishga, o'rganishga, izlanishga undaydi. O'zbekiston tajribasida ham bu borada ijobiy siljishlar bor. Xususan, "ZiyoNet", "EduMarket.uz", "Talaba.uz", "OnlineMaktab.uz" kabi mahalliy platformalar orqali ta'lim sifati oshirilmoqda. Bu platformalarning eng katta afzalligi — ular o'zbek tilida, mahalliy o'quv dasturlariga mos holda ishlab chiqilgan.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish — bu faqat tasviriy san'at yoki adabiyot emas, balki barcha fanlarda zarur bo'lgan universal ko'nikmadir. Masalan, matematikada muammoni boshqa yo'l bilan yechish, tarixda voqealar sababini turlicha izohlash, biologiyada tajriba natijasini yangi g'oya bilan bog'lash — bularning barchasi kreativ yondashuv mahsuli sanaladi.

Shunday yondashuvni o'rgatuvchi platformalar o'quvchini standart yodlashdan chetlashtirib, mustaqil o'ylovchi shaxsga aylantiradi.



Ta'limiy platformalarning yana bir ijobiy jihati — ularning doimiy yangilanib borishi va foydalanuvchi fikrlariga asoslangan tarzda takomillashib borishidir. Har bir foydalanuvchi o'z ehtiyojiga qarab kerakli resursni tanlaydi. Bu erkinlik, ayni vaqtda, mas'uliyat ham yuklaydi: o'qituvchi to'g'ri yo'naltiruvchi, o'quvchi esa faol ishtirokchi bo'ladi. O'qitishning audiovizual vositalardan o'quv maskanlarida foydalanish o'quvchilarda o'tilayotgan fan darajasida ma'lum bir tassavurlar, qiziqishlar va ko'nikmalar hosil bo'lishida katta ahamiyat kasb etadi.

Audiovizual vositalar o'quvchining ikki organlariga, eshitish va ko'rish organlariga bir paytda ta'sir qiladiki, buning natijasida ularning o'tilayotgan darsni o'zlashtirish darajasi ancha yuqori bo'ladi. Zamonaviy ta'lim tizimi o'z oldiga faqat bilim berishni emas, balki mustaqil fikrlovchi, kreativ va innovatsion qarashlarga ega shaxsni tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda. Bunday yondashuvni amalda ro'yobga chiqarishda ta'limiy platformalarning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, kreativ fikrlashni

shakllantiruvchi onlayn platformalar o'quvchini faollikka, tanqidiy tahlilga, jamoaviy ishlashga va muammo yechishga yo'naltiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'limiy muhit o'quv jarayonini individuallashtirish, istalgan vaqtda, istalgan joyda ta'lim olish imkonini beradi. Ta'limiy platformalar yordamida nafaqat bilim olish, balki uni amaliyotda sinab ko'rish, yangi g'oyalarni shakllantirish va o'zini rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuning uchun, bugungi kunda har bir pedagog va ta'lim tashkiloti bu imkoniyatlardan samarali foydalanishi zarur. Zero, innovatsion ta'lim vositalarini o'z vaqtida joriy etish – kelajak raqobatbardosh jamiyatining poydevorini qurish demakdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta'limiy platformalar nafaqat bilim olish, balki yosh avlodning fikrlash tarzini, bilimga munosabatini, ijodiy yondashuvini o'zgartirmoqda. Ta'lim tizimi bu vositalar orqali o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Demak, ushbu platformalarni ta'limga keng joriy etish — kelajak avlodni intellektual, kreativ, axborot texnologiyalarini chuqur biladigan shaxs sifatida tarbiyalashning eng muhim yo'lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Murodullayeva, R.A., Inomjonov, A.E. (2023). *Dasturiy ta'minot vositalari va ularning telekommunikatsiya tarmoqlarida qo'llanilishi*. Interonconf.org.
<https://interonconf.org/index.php/rus/article/download/1080/999/985>
2. Khan Academy. <https://www.khanacademy.org>
3. Shamamatova, S.J., Murodullayeva, R.A., Sobirova, K.A. (2024). *Axborot xavfsizligi texnikasi va IT sohasida sun'iy intellektning o'rni*.
<https://kompy.info/mejdunarodnaya-nauchno-tehnicheskaya-konferenciya-prakticheskoye.html?page=273>
4. Coursera. <https://www.coursera.org>

5. Murodullayeva, R. A. (2024). *AutoPlay Media Studio yordamida interaktiv elektron darsliklarni yaratish va ta'lim jarayonida qo'llash*. Toshkent: Ta'lim va texnologiya.
6. Ziyonet – O'zbekiston ta'lim portali. <https://ziyonet.uz>
7. Murodullayeva, R.A., Ro'zaliyev, M.X., Shamamatova, S.J. (2024). *Ta'lim sohasida onlayn konferensiya va vebinarlarni tashkil etish*. TADQIQOTLAR.UZ, 37(5), 168–171.
8. Talaba.uz – Ta'limiy platforma. <https://talaba.uz>
<https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/2977>
9. Murodullayeva R.A. (2024). *Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt: ijtimoiy sohalarda innovatsiyalar*. "Ilm va taraqqiyot yo'lida" ilmiy jurnali, №3, 28–34.